



## FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATIDA BANKLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

*Urayimova Mexriniso Dilshodbek qizi*

*Andijon Davlat Texnika Instituti,*

*“Iqtisodiyot” yo‘nalishi 4-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: “Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi*

*Ibragimova Gulnozaxon Sayidmurodovna*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fermer xo'jaliklari faoliyatida banklarning o'rni va ahamiyati haqidagi masalalar tahlil qilinadi. Hozirgi tez suratda rivojlanib borayotgan raqobatbardosh agrar iqtisodiyotda banklarning o'rni sezirli darajadi yildan-yilga o'sib bormoqda. Maqolada banklar tomonidan fermerlar uchun ko'rsatilayotgan ko'plab moliyaviy imkoniyatlar: kreditlar, qarzarlar va boshqa moliyaviy xizmatlar orqali ularga investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy maslahatlar berish, risklarni boshqarish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, yangi bozorlarni o'rganish va mahsulotlarni diversifikatsiya qilish kabi dolzarb masalalar haqida ma'lumotlar muhokama qilinadi. Tadqiqot xulosalari fermer xo'jaliklarini banklar orqali takomillashtirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar va takliflardan iborat.

**Kalit so'zlar.** Bank tizimi, raqamli texnologiyalar, banklararo xamkorlik, xavf-xatarlarni boshqarish, samaradorlikni oshirish, integratsiya. innovatsion yondashuvlar.

**Abstract.** This article analyzes the issues regarding the role and significance of banks in the activities of farmer enterprises. in the rapidly developing competitive agrarian economy, the role of banks is significantly increasing year by year. The



article discusses various financial opportunities provided by banks for farmers through loans, debts, and other financial services, including expanding investment opportunities, providing financial advice, managing risks, ensuring economic stability, effectively utilizing modern technologies, exploring new markets, and diversifying products.”

**Keywords.** Banking system, financial operations, digital technologies, interbank cooperation, risk management, efficiency improvement, innovative approaches.

Bugungi kunda globallasuv jarayonida banklarning agrar - industrial sohasi sifati va samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalasi, mamlakatning raqobatbardoshligi va barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Xalqaro savdo va investitsiyalar hajmini oshishi, moliyaviy bozorlarning integratsiya va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida agrar tizimlarni rivojlantirishga ularni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Agrar – industrial sohasi sifatini oshirishda iqtisodiy mexanizmlarini roli katta ahamiyatga ega, chunki iqtisodiy barqarorlik va rivojlanish agrar tizimning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan moddiy va moliyaviy resurslarni ta'minlaydi. Bu jarayonlarda xalqaro standartlar va amaliyotlarni joriy qilish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish xamda banklararo xamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlar banklarning va aholining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda, hizmat sifatini oshirishda va foydali mahsulotlar bilan ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada fermer xo'jaliklarini qo'llab quvvatlashga qaratilgan say-harakatlar, mavjud muammolar, ularning yechimlari va takomillashtirish, xalqaro standartlar va amaliyotlarni joriy qilish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish xamda banklararo xamkorlikni kuchaytirish haqida so'z yuritiladi.



Mazkur tadqiqot fermer xo'jaliklari faolyatini samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni taxlil qiladi va bu sohadagi kelgusidagi rivojlanish uchun takliflar ishlab chiqishni maqsad qilgan.

Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin: fermer xo'jaliklarini sifatini baholashning iqtisodiy mezonlari agrar tizimning samaradorligi, barqarorligi va natijalarini iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali o'lchashga imkon beradi. Bu mezonlar orqali agrar sohaning iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasi va iqtisodiy jihatdan agrar tizimining qay darajada samara berayotganini aniqlash mumkin. Quyida fermer xo'jaliklari sifatini iqtisodiy mezonlar asosida baholash yo'llari keltirilgan:

➤ Moliyalashtirish tizimini isloh qilish:

Fermer xo'jaliklariga yo'naltirilgan xarajatlarning hajmi – bu davlat yoki xususiy sektor tomonidan agrar tizimini qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan moliyaviy mablag'lar miqdori. Ushbu xarajatlar fermer xo'jaliklarini holatini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish, fermerlar malakasini oshirish va texnologiyalarni modernizatsiya qilish uchun ishlatiladi.

Xarajatlarning hajmi agrar tizimning samaradorligiga va iqtisodiyotga kiritilgan sarmoya sifatida katta ta'sir ko'rsatadi. Bular yordamida agrar tizimga kiritilgan mablag'ning foydali ishlatilganligi va natijadorligi baholanadi. Ajratilgan resurslarning (moliyaviy, infratuzilma, inson kapitali) fermer xo'jaliklari rivojlanish sifatiga bo'lgan ta'siri, ya'ni kiritilgan har bir mablag'ning agrar natijalarida qanday ijobiy o'zgarishlarga olib kelganligini o'lchash.

Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali agrar sohani moliyalashtirish hajmini oshirish.

Imtiyozli kreditlar va kreditlar tizimini kengaytirish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlash bu orqali bank xodimlari va fermer xo'jaliklari subyektlari bilan do'stona muloqot va yangilklar bilan bo'lishish ularga yordam berish imkoniyatlarini oshirish.



To'lov-kontrakt tizimini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish fermer xo'jaliklarini moliyaviy hisob-kitob amaliyotlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

➤ Mehnat bozoriga moslashuvchanlik:

Mehnat bozori talablari va texnologik rivojlanish dinamikasiga mos keladigan qishloq xo'jaligi dasturlarini yaratish.

Qishloq xo'jaligiga oid ta'lim muassasalarining korxonalar va biznes bilan kooperatsiyasini oshirish, amaliyot o'rinlarini ko'paytirish va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash.

➤ Fermer xo'jaliklari sohasi sifatini baholash tizimi:

Fermer xo'jaliklari sifatini baholash va reyting tizimlarini joriy etish, bu orqali samarali raqobat muhiti yaratish va faoliyatini doimiy monitoring qilib borish.

➤ Raqamli texnologiyalar va investitsiyalar joriy etish:

Zamonaviy texnologiyalar va investitsiyalar fermer xo'jaliklarni rivojlantirishda zamonaviy va qulay texnikalar muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologiyalardan foydalanish fermerlar ishini unumdorligini oshiradi, tezlashtiradi va mablag' sarfini kamaytiradi.

Raqamli texnologiyalar: raqamli texnologiyalarni joriy etish fermer xo'jaliklarini moliyaviy hisob-kitob amaliyotlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Blokcheyn va raqamli valyutalar kabi innovatsiyalar xisob - kitob jarayonlarini avtomatlashtirish va tezlashtirish imkoniyatini yaratadi.

➤ Bank tizimining iqtisodiy va ijtimoiy integratsiyasi:

Banklararo hamkorlik: fermer xo'jaliklarini moliyaviy xisob-kitob sohasini takomillashtirishda bank bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Bank va fermer xo'jaligi o'rtasidagi axborot almashinuvi va hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish orqali xavf-xatarlarni kamaytirish, xisob-kitoblarning aniqligini oshirish va qo'shimcha takliflar bildirishi mumkin



Bugungi kunda sifat dunyodagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, unga bo'lgan qiziqish to'xtovsiz oshib bormoqda. Bu shu bilan bog'liqki, mahsulot va xizmatlar sifati bozordagi ustuvorlikni oshiradi, davlat xavfsizligini kafolatlaydi. Mamlakat taraqqiyotning barqarorligini ta'minlaydi, atrof muhitni, inson salomatligi va turmush darajasini yuksak darajada ta'minlashga xizmat qiladi.

Bu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan islohotlar agrar iqtisodiyot sifatini oshirish orqali mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Qattiq nazorat va adolatli boshqaruvni talab qiladi.

Xulosa qilib ayganda, iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish qishloq xo'jaligi tizimini raqobatbardosh qilish, mehnat bozoriga moslashuvchan kadrlar tayyorlash va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda asosiy omil hisoblanadi. Fermer xo'jaliklari sifati va samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish muhim iqtisodiy va ijtimoiy jarayondir, shuningdek, agrar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga va inson kapitalining sifatini oshirishga hissa qo'shadi. Ushbu mexanizmlar qishloq xo'jaligi tizimiga ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanishni, innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni va qishloq xo'jaligi oid ta'lim muassasalarining iqtisodiyot bilan yaqin integratsiyasini ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. T.: "Moliya" nashriyoti, 2002 y. 184 b.
2. Saidov M.X. Oliy ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv: o'quv qo'llanma/ M.X.Saidov. – T.: "Tafakkur – Bo'ston", 2011.
3. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. Qonunlar to'plami. T.: "Adolat", 2001. 2. Akbarxodjayev Z.Z. "Innovatsion menejment". O'quv - uslubiy majmua. T.: "TDIU", 2012.76- 87



4. Taraxtiyeva G.K. “Innovatsion menejment”. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan va texnologiya”, 2013.273-278

5. Qosimova D.S. “Menejment nazariyasi” O‘quv - uslubiy majmua. T.: “TDIU”, 2011. 123-1295. Muratov R.S., Djalolova I.A.,Oripov.S.Sh. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik -Toshkent, 2014-35-b.

6. Ibragimova G.S. Features of the use of information and communication technologies in assessing the quality of education// Central Asian Journal of education. – 4-13- 2022.Issue 1- vol7/ iss1/4.

7. Ibragimova.G.S. Assenssing the use of information and communication technology quality of education // Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka Journal.- Warszawa, 2022. -№5 – P.38-44.